

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

E.R.Yuzlikayeva

« ____ » ____ 2014 yil

**5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi 402-guruh
talabasi**

Alimboev Xushnudbek Xurmatovichning

**“Janubiy-G'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası katta o'qituvchisi
_____**I.Islomov**

Ilmiy maslahatchi: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası dotsenti, g.f.n
_____**N.Safarova**

«Himoyaga tavsiya etilsin»

**«Geografiya va uni o'qitish
metodikasi» kafedrası mudiri**

_____g.f.n. dots. N.R.Alimqulov****

« ____ » ____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

Mundarija

Kirish	3 b.
I.Bob. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari	5 b.
1.1 Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari geografik o'rni tabiiy sharoiti va resurslarining o'ziga xos xususiyatlari	5 b.
1.2 Aholisi va mehnat resurslari	14 b.
II.Bob. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligining rivojlanishi.....	20 b.
2.1. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligiga umumiy tavsif.....	20 b.
2.2 Mintaqa davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish tafovutlari.....	25 b.
III. Bob«Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o'qitish metodikasi	34 b.
3.1 “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	34 b.
3.2 «Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	42 b.
Xulosa.....	48 b.
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	49 b.

KIRISH

Osiyo qit'asi jahonning qadimiy madaniyat markazlari joylashgan hudud hisoblanadi. Uning subregionlari orasida Janubi-g'arbiy Osiyo alohida ajralib turadi. Mintaqa tarkibiga kiruvchi ko'p sonli davlatlarning o'zi ham bir-biridan tarixiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida ekanligi bilan farq qiladi. Bu mintaqada qadimiy davlatchilik shakli hisoblangan monarxiyaning barcha ko'rinishlari keng tarqalganligi bilan ham ajralib turadi.

Ushbu davlatlar iqtisodiyotining rivojlanganligi bilan ham bir-biridan tafovvtlanadi. Ular orasida hozirda jahonning tez rivojlanayotgan neftni eksport qiluvchi davlatlari bilan bir qatorda BMT tasnifiga ko'ra qoloq davlatlar sirasiga kiruvchi Afg'oniston ham joylashgan. O'zbekiston Respublikasining janubiy qo'shnisi bo'lgan Afg'onistondagi siyosiy ahvol milliy iqtisodiyotimiz rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Bu haqda respublika prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: “«...Bir yil o'tar, besh yil o'tar, shu qadimiy Afg'oniston zaminida, albatta, tinchlik va osoyishtalik o'rnatiladi, nafaqat o'zimiz, balki ko'plab boshqa davlatlar ham Termiz orqali janubiy yo'nalish bo'yicha dengiz va okeanga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi”¹.

Mazkur tafovvtlar bir qator siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan tafovvtlarni o'rganish orqali ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Mintaqada islom dinining asosiy markazlari hisoblangan Makka va Madina shaharlarining joylashganligi bilan ham ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik har tomonlama mustahkam aloqalarga ega. Ayniqsa, mustaqillik yillarida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy sohalarda Turkiya Respublikasi, Kavkazorti davlatlari hamda Fors ko'rfazi davlatlari bilan har tomonlama mustahkam aloqalar o'rnatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish.

¹ Karimov I.A. Xalq ishonchi oliy ma'suliyat.// «O'zbekiston» 2004 y., 211 b.

Ob’ekti: Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti.

Predmeti: Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni, ularning tarmoqlarga ta’sir holatini aniqlash hamda iqtisodiyotining hududiy rivojlanish xususiyatlarini o’rganib chiqish.

Vazifalari:

- Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlarining geografik o’rni, tabiiy sharoiti va resurslarini o’rganish;
- Aholisi va mehnat resurslari iqtisodiyoti rivojlanishidagi rolini tahlil qilish;
- Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari xo’jaligining asosiy tarmoqlariga tavsif berish;
- Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining hududiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;
- “Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari” mavzusini o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: BMI ma’lumotlaridan 9-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining “Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari” mavzusini o’qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: Ishning umumiy hajmi 52 betdan iborat. Unda 11 ta jadval va 2 ta karta-sxema mavjud. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati 16 manbaadan tashkil topgan. Bundan tashqari, ish so’nggida mavzuga oid – so’zdan iborat inglizcha-o’zbekcha glossariy, qisqacha o’zbek, rus va ingliz tillaridagi annotatsiya mavjud.

I – BOB. JANUBI-G'ARBIY OSIYO DAVLATLARI GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA RESURLARI.

1.1. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari geografik o'rni tabiiy sharoiti, va resurlarining o'ziga xos xususiyatlari.



Janubiy-G'arbiy Osiyo Yaqin va O'rta Sharqning katta qismini egallab, Kichik Osiyo yarim orolini, Armaniston va Eron tog'ligini, Mesopotamiya pasttekisligini, Arabiston yarim orolini, Kipr orolini, shuningdek, Fors ko'rfazi va Qizil dengizdagi qator kichik orollarni o'z ichiga oladi. Janubi-G'arbiy Osiyoni egallagan mamlakatlarning umumiy maydoni 6,8mln.km²ga teng bo'lib, butun Osiyoning 15% maydonini egallaydi. Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlarida 240mln. kishi yashaydi.

Bu mintaqaning geografik o'rni dunyoning uch qismi bir-biri bilan tutashgan joyda (Osiyo, Afrika, Yevropa), muhim havo yo'llari va dengiz yo'llari chorrahasida (Qora dengiz, Bosfor va Dardanell bo'g'zlari, Marmar dengizi, Egey dengizi, O'rta dengiz, Suvaysh kanali, Qizil dengiz, Bobil-Mandab bo'g'ozi), shuningdek bu yerda boy neft konlarining mavjudligi uning katta iqtisodiy va strategik ahamiyatini belgilaydi. [3]

Janubi-G'arbiy Osiyo yer sharidagi siyosiy jihatdan faol mintaqalaridan biri hisoblanadi. Kishilik jamiyati rivojining hamma tarixiy pog'onalarida murakkab iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, bu yerda buyuk imperiyalar va

kichik davlatlarning bunyod bo'lishi va tarqalib ketishi harbiy g'alabalar va buzg'unchiliklar natijasidir.

Tarixiy manbaalar va ma'lumotlar Janubi-g'arbiy Osiyoda ilk qadimiy insonlar faoliyati 35 ming yillar ilgari shakllana boshlaganligini ko'rsatadi. Bu hududda eramizdan avvalgi 5-4 ming yilliklarda ilk dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'lgan bo'lib, miloddan avvalgi 3 ming yilliklarda qadimiy davlatlar yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi 2900-2750 yillarda esa mintaqada SHumerlar, Ashshurlar kabi qadimiy shaharlar rivojlangan.

Mintaqa siyosiy hayotida aholi o'rtasida tarqalgan diniy qarashlar o'am muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, Janubi-g'arbiy Osiyo hududi xristian va islom kabi dunyoviy dinlar hamda mahalliy din hisoblanuvchi iudaizm dinlari paydo bo'lgan va rivojlangan markaz bo'lib hisoblanadi. Ko'p davrlar davomida turli Yevropa davlatlari, Misr qo'l ostida bo'lgan mintaqada davlatlari 630 yillarda arab xalifaligiga birlashtirildi.

Janubi-g'arbiy Osiyo hududida shakllangan Usmoniylar imperiyasi mintaqada siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1453 yilda Maxmud II tomonidan mintaqada hududi Usmoniylar imperiyasiga birlashtirilgan bo'lib, XV asrda u o'zning eng yuqori rivojlanish davrini boshidan kechirgan. XVIII–XX asr boshlarigacha bo'lgan davrlaroralig'ida esa u ba'zan siyosiy ahamiyati oshgan, ba'zi davrlarda jahon siyosatida o'z o'rnini yo'qotib qo'ygan holatda mavjud bo'lgan. Birinchi Jahon urushida Germaniya imperiyasi tomonidan jang qilgan mazkur imperiya mag'lubiyatdan so'ng Antanta a'zolari tomonidan bo'lib olindi.

Jahon siyosiy kartasi shakllanishining yangi va eng yangi davrlarida geografik o'rni juda qulay bo'lgan Janubi-g'arbiy Osiyoga ko'plab yirik davlatlar tomonidan qiziqish kuchayib ketdi. 1869-yilda Suvaysh kanalining qurilishi, boy neft va metall ruda konlarining ochilishi, qishloq xo'jalik xom ashyosi, mehnat resurslarining naqd arzon manbai – bularning hammasi

mintaqaning iqtisodiy, siyosiy va harbiy-strategik ahamiyatini oshirdi, hamda imperialistlararo kurashning zo‘rayib ketishiga, asosan Angliya, Fransiya, keyinchalik Germaniya va AQSH o‘rtasida hududlarni bo‘lib olishga va uning siyosiy xaritasini o‘zgarishiga olib keldi.

I Jahon urushidan so‘ng Janubi-G‘arbiy Osiyo mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari uchun kurash boshlandi. Birinchilardan bo‘lib mustaqillik uchun kurashda 1919-yil Afg‘oniston g‘alabaga erishdi. 1920-yil Eron suverentetini qo‘lga kiritgan, 1923-yil Turkiya Respublika e‘lon qilindi.

II Jahon urushi mintaqanig siyosiy xaritasiga katta o‘zgarishlar olib keldi. Milliy ozodlik harakatlarining ko‘tarilishi natijasida 1943-yil Suriya va Livan, 1946-yil Iordaniya siyosiy mustaqillikka erishdi. Keyinchalik monarxiya tuzumi Iroq va Yamanda ag‘darib tashlandi. 1947-yil BMT Bosh Assombliyasi qaroriga binoan Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan Falastin ikki davlatga: yahudiylar davlati – Isroil va arab davlati – Falastinga ajratildi.

Biroq 1948-yil imperialistlar va sianistlarning kelishmovchiligi natijasida BMT qaroriga xilof ravishda Isroil Falastin davlati va Yerusalim hududining katta qismini bosib oldi. Isroilning birinchi agressiyasi ketidan yana uchta arab davlatlariga qarshi bosqinchilik urushi bog‘lanib ketdi. 1956-yilda u Misrga qarshi uch yoqlama agressiyaning qatnashchisi bo‘ldi (Angliya va Fransiya bilan birgalikda). 1967-yilda Misrga qarashli butun Sinay yarim orolini va Suriyaga qarashli G‘ulon tepaliklarini bosib oldi. 1973-yilda Misrga qarshi Isroilning to‘rtinchi urushi bo‘ldi. 1982-yildagi Isroil bilan bog‘liq beshinchi Yaqin Sharq urushi Livanda tinch Livan va Falastin aholisining tinchini buzgan zo‘ravonlik va qonli ko‘rinishi bilan farq qildi. Falastinning 3 mln. dan ortiq arab aholisi o‘z yeridan haydab chiqarildi, davlatchilik qonun huquqlaridan mahrum qilindi. BMT ning Isroil bosib

olgan hududlarni ozod qilinishi haqidagi qaroriga qaramasdan ahvol oldingidek qolmoqda.

1960-yil Kipr Respublikasi tashkil topdi. 1961-yil Quvayt, 1967-yil YaXDR (1990-yil YaAR bilan birlashdi), 1971-yil Baxrayn, Qatar, BAA mustaqillikka erishdi.

Siyosiy mustaqillikka erishgan Janubi-Gʻarbiy Osiyo davlatlari oldida yangi, lekin kam ahamiyatga ega boʻlmagan muammo-iqtisodiy mustaqillikka erishish butun boʻyi bilan koʻndalang turardi. Milliy iqtisodiyotni tashkil qilish va rivojlantirishda, xorijliklarning aralashuvidan ozod boʻlishda, ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlardagi kurash qiyin sharoitda kechdi. Mintaqa mamlakatlari davlat tuzumiga koʻra bir-biridan farq qiladi. Intensiv ijtimoiy oʻzgarishlar yoʻlini tanlagan respublikalar – Afgʻoniston, Yaman, Suriya, Iroq, Livan. Monarxiya tuzumi Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Quvayt, Qatar, Baxrayn, Ummonda hali ham saqlanib qolgan. [13]

Janubi-Gʻarbiy Osiyo siyosiy xaritasida quyidagi davlatlarni koʻrish mumkin: Afgʻoniston, Eron, Turkiya, Kipr, Isroil; arab davlatlari – Suriya, Livan, Iroq, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Baxrayn, Yman, Ummon. SHu bilan birga Abxaziya, SHimoliy Kipr turk respublikasi, Janubiy Osetiya va Falastin davlati kabi qisman tan olingan va Togʻli Qorabogʻ respublikasidek tan olinmagan mamlakat va hududlar ham mavjud. Mintaqa siyosiy barqarorlik darajasiga koʻra nisbatan notinch hudud hisoblanadi. Mintaqa davlatlari orasida monarxiya davlat tuzumiga ega boʻlganlari bilan bir qatorda, respublikalar soni ham koʻp (1-jadval). Region davlatlari davlat tuzumiga koʻra mutloq teokratik, konstitusion, federal monarxiya davlatlariga va respublika davlatlariga boʻlinadi.

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari haqida umumiy ma'lumot

№	Davlatlar	Maydoni, ming km.kv.	Davlat tuzumi	Poytaxti
1.	Afg'oniston	652,1	respublika	Qobul
2.	Baxreyn	0,7	monarxiya	Manama
3.	Isroil	14,1	respublika	Tel'-Aviv
4.	Iordaniya	98,3	monarxiya	Amman
5.	Iroq	435,1	respublika	Bag'dod
6.	Eron	1648,0	respublika	Tehron
7.	Yaman	528,0	respublika	Sana
8.	Qatar	11,4	monarxiya	Doxa
9.	Kipr	9,3	respublika	Nikosiya
10.	Quvayt	17,8	monarxiya	El-Quvayt
11.	Livan	10,4	respublika	Bayrut
12.	BAA	83,6	monarxiya	Abu-Dabi
13.	Ummon	212,5	monarxiya	Maskat
14.	Falastin Avtonomiyasi	6,3	-	Quddus
15.	Saudiya Arabistoni	2150,0	monarxiya	Ar-Riyod
16.	Suriya	185,2	respublika	Damashq
17.	Turkiya	780,6	respublika	Anqara
18.	Armaniston	29,7	respublika	Erevan
19.	Ozarbajjon	86,6	respublika	Boku
20.	Gruziya	69,7	respublika	Tbilisi

Mintaqa tabiiy geografik joylasuviga ko'ra dunyodagi eng yirik yarimorol Arabiston va Kichik Osiyo yarimorolini egallagan. Bu regiondagi Afg'oniston, Armaniston va Ozarbajjondan tashqari barcha davlatlar dengiz bo'yida joylashgan. Bu holat mintaqa geografik o'rnining nisbatan qulayligini ko'rsatib beradi. [12]

Ko'pchilik davlatlarning dengiz bo'yida joylashganligi geografik o'rni qulayligining bir jihati hisoblansa, bundan tashqari, uning Yevropa, Shimoliy Afrika va Hindistonga yaqinligi, muhim dengiz va havo yo'llarida joylashganligi, neft va tabiiy gazga boyligi ham ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Bu regionni iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlari: Turkiya, Isroil, Kipr. Eng qoloqlari: Afg'oniston, Yaman.

Janubi-G'arbiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o'rni quyidagicha: bu region er shari maydoninig 4,6 % ini egallagan ; dunyo aholisining 4,6 % ini o'z ichiga oladi; dunyo bo'yicha YAIM ning 2,6 % ini shu region beradi ; dunyo bo'yicha yalpi eksport mahsulotining 3, 7 % i shu regionga to'g'ri keladi.

Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasi geografik jihatdan quyidagi kichik subregionlarga ajratiladi:

1. Kavkazorti.
2. Kichik Osiyo.
3. Kopetdog'.
4. Arman va Eron yassi tog'liklari.
5. Messopotamiya.
6. Arabiston yarim oroli.
7. Levant.

Siyosiy ahamiyat nuqtai nazaridan esa uchta kichik mintaqaga ajratiladi:

1. Yaqin SHarq (Afrika qismidan tashqari).
2. O'rta SHarq.
3. Janubiy Kavkaz.

Janubiy-g'arbiy Osiyo hududining asosiy qismi Al'p burmalanishi oblastiga tegishli bo'lib, Janubiy Yevropa tog'lar tizimining davomi hisoblanadi. Tog'lar yassi tog'liklar ko'rinishida mintaqaning chekka qismlarida mavjud bo'lsa, markaziy qismlar nisbatan past hududlar bo'lib, yassi tog'liklardan iborat.

Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasining tabiiy kartasi



Evrosiyaning asosiy qismi Al'p-Himolay burmali mintaqasi tog'lari ko'tarilganda ularning janubi-g'arbiy chekkasida hosil bo'lgan Messopatamiya bukilmasi neogen to'lishi natijasida shakllangan. Janubi-g'arbiy Osi kelib chiqishiga ko'ra Afrika platformasining bir qismi hisoblanadi. U Afrikadan neogen to'rtlamchi davrda Qizil dengiz grabenini hosil bo'lishi bilan uzil-kesil ajralgan.

Hosil bo'lishining umumiyligi, tropik mintaqada joylashganligi paleoiqlimiy sharoiti va hozirgi iqlimining o'xshashligi, organik dunyosining bir xilligi Arabiston yarim orolini aslida Sahroi Kabirning davomiga aylantiradi.

Janubi-g'arbiy Osiyoni uch tomondan Hind okeanining shimoli-g'arbiy qismidagi yosh dengizlar o'rab turadi. Bular yer po'sti yoriqlari vujudga kelgan Qizil dengiz, Adan va yaoman qo'ltiqlari, tog' oldi bukilmasida hosil bo'lgan Fors qo'ltig'i hamda okean tipidagi tektonik botiqda paydo bo'lgan Arabiston dengizidir. Barcha dengizlarga yuqori harorat ostida qizigan qit'alar, musson shamollari ta'sir ko'rsatadi va ular suvi haroratining yuqoriligi hamda yuqori darajada sho'rlanganligi bilan ajralib turadi. Yuzadagi suvlar may oyidan avgust oyigacha eng iliq bo'ladi: Arabiston dengizida $+29^{\circ}\text{S}$, $+30^{\circ}\text{S}$, Qizil dengizda $+32^{\circ}\text{S}$ gacha, Fors qo'ltig'ida $+35^{\circ}\text{S}$ gacha yetadi. Bu dunyo okeani yuzasida kuzatiladigan suvning eng yuqori temperaturasidir. Hind okeanining shimoli-g'arbiy qismida 800 m. chuqurlikkacha $+12^{\circ}\text{S}$ harorat saqlanadi. O'rtacha yog'in miqdori 100-150 mm.dan 500-750 mm.gacha bo'ladi.

Kuchli bug'lanish va quruqlikdan oqib keladigan suvning kamligi Hind okeani suvi sho'rligining yuqori bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Arabiston dengizida suvning sho'rliigi darajasi 36-36,5‰, Fors qo'ltig'ida 37-39‰, Qizil dengizda 41‰. Bu Dunyo okeani suvidagi eng yuqori sho'rlikdir.

Tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Turkiya, Armaniston, Afg'oniston, Eron kabi davlatlarda tog'lar katta maydonni egallagan. Arabiston yarimoroli davlatlarida cho'llar (Rub-el- Xali, Katta va kichik Nefut, Suriya), Eronda esa sho'rxok cho'llar (Dashti-Kevir, Dashti-Lut) katta maydonlarni egallagan. Umuman mintaqada cho'l hudulari bilan bir qatorda chalacho'llar va tog'li o'lkalar ham mavjud.

Osiyo mintaqalari orasida eng yuqori miqdorda quyosh radiatsiyasi kuzatiladi. Bu holat esa uning Yevrosiyodagi eng quruq mintaqaga aylanishiga sababchi bo'ladi. Iqlimiy jihatdan regionni shimolini subtropik, katta janubiy qismini esa tropik iqlim mintaqasi egallagan. Tog'larda balandlik iqlim mintaqasi vujudga kelgan bo'lib, bu yerad keskin kontinental iqlim shakllangan. O'rta yer, Qora va Kaspiy dengizbo'ylarida namlik darajasi yuqori bo'lsa, Arabiston yarim oroli eng quruq hudud sanaladi. [9]

Janubi-g'arbiy Osiyo tuproqlari tarkibi ancha kambag'al bo'lib, bu holat dehqonchilik uchun noqulaylik tug'diradi. Qumli va toshloq cho'llar, tog'lar va o'ta quruq iqlim yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bu yerda asosan bo'z, kashtan va qizil tuproqlar tarqalgan.

Bu yerda suv resurslari nisbatan kambag'al bo'lib, asosiy suv manbaalari Eron yassi tog'ligi va Old Osiyo subregionlarida joylashgan. Dajla, Frot, Kura, Araks kabi daryolari, Savan, Van kabi ko'llari mintaqaning eng asosiy suv manbaalari hisoblanadi.

Regionning asosiy foydali qazilmasi neft va tabiiy gaz. Jahon neft zaxirasining $\frac{2}{3}$ qismi, qazib olishning $\frac{1}{4}$ qismi Fors korfazi bo'yi davlatlariga to'g'ri keladi. Neft zahirasi bo'yicha dunyoda Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA etakchi o'rinda turadi.

Dunyoda topilgan 30 ta ulkan neft konining 15 tasi Fors korfaziga to'g'ri keladi. Gavar (Saudiya Arabistoni), Al-Burxon (Quvayt), Manifa (Saudiya Arabistoni) kabi konlardan sutkasiga 2 ming tonnagacha neft fontan bo'lib otilib chiqadi. Neft quduqlarining umumiy soni 5 ming ta (2-jadval). Tabiiy gazni qazib chiqarish bo'yicha Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron va BAA davlatlari etakchi.

Fosforitning yirik konlari Iordaniyada (dunyoda 5-o'rinda). Kaliy tuzining yirik konlari Isroilda (5-o'rinda). Oltingugurtning yirik konlari Iroqda (dunyoda 4-o'rinda). Mis va xromning yirik konlari Eron va Turkiyada. Hidroenergiya resurslariga Afg'oniston, Gruziya va Armaniston boy. Turkiya va Kiprning O'rta Er dengizi sohillari tabiiy-rekreasion resurslarga boy. Shuning uchun u erlarda turizm rivojlangan.

Fors ko'rfazidagi asosiy yirik neft konlari o'ntaligi

№	Kon nomi	Kon tegishli bo'lgan davlat	Umumiy zahirasi, mlrd.t.
1.	Gavar	Saudiya Arabistoni	11,9
2.	Aga-Jari	Eron	10,0
3.	Katta Burgan	Quvayt	9,3
4.	Es-Saffaniya	Saudiya Arabistoni	3,5
5.	Kirkuk	Iroq	3,0
6.	Rumayla	Iroq	2,8
7.	Raudatayn	Quvayt	2,0
8.	Abkayk	Saudiya Arabistoni	1,6
9.	Gechsaran	Eron	1,5
10.	Marun	Eron	1,4

SHu bilan birga mintaqada o'ziga xos tarzda asosan tog' va cho'l ko'rinishlarini o'zida jamlagan holda bu ikki o'lkaga xos o'simlik va hayvonot olamiga ega. Ular orasida ayniqsa, o'rmon resurslari ahamiyatli bo'lib, unga boyligi jihatidan Turkiya, Kavkazorti davlatlari alohida ajralib turadi.

Dengizbo'yi va tog'larning go'zal manzaralari tabiiy rekreatsion resurs sifatida sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Turkiya, Kipr, Isroil, arab davlatlari ayniqsa mazkur xizmat ko'rsatish sohasi orqali katta valyuta tushumlariga ega bo'ladilar.

Demak, Janubi-g'arbiy Osiyoda mavjud bo'lgan yoqilg'i, metall va metallmas mineral resurslar bu yerda bir qator og'ir sanoat tarmoqlarining, Dajla, Frot, Kura, Araks kabi daryolari hamda kam miqdordagi qimmatbaho serunum yerlar dehqonchilikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tabiiy rekreatsiya resurslar esa turizm rivojlanishiga turtki bo'ladi.

1.2. Aholisi va mehnat resurslari.

Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasi aholi tomonidan qadimdan o'zlashtirilgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yer nafaqat jahonning qadimiy oykumenalaridan biri bo'lib qolmay, balki xristian va islom kabi jahon, yahudiylik kabi mahalliy dinlarning vatani bo'lib ham hisoblanadi. Bu mintaqada ko'plab millatlar istiqomat

qiladi. Va mintaqada murakkab aholi takror barpo bo'lishiga aynan diniy va milliy omillar katta ta'sir ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Janubiy-g'arbiy Osiyo mintaqasining demografik ko'rsatkichlari

KO'RSATKICHLAR	MIQDORI
Aholi soni	2012 y- 240 mln.k 2025y– 300 mln.k 2050 y – 402 mln.k
Tabiiy o'sish	19 ‰ (24/5)
Migratsion sal'do	2‰
Bir yoshgacha bolalar o'limi	27‰
Yosh tarkibi: bolalar	30%
kattalar	64%
qariyalar	6%
O'rtacha umr ko'rish darajasi	72 yosh
Urbanizatsiya darajasi	69%
O'rtacha zichlik	49 kishi
Aholi jon boshiga YaMM	10560 AQSH dollari

Kavkaz orti davlatlari, Isroil va Kiprdan tashqari barcha davlatlarda demografik portlash kuzatiladi. Aholi soniga ko'ra:

1. Turkiya
2. Eron
3. Afg'oniston
4. Iroq
5. Saudiya Arabistoni kabilar etakchilik qiladi (4-jadval).

Baxrayn, Katar, Kipr kabi davlatlarda aholi soni 1mln kishiga etmaydi. Regionning qolgan barcha davlatlarida (Kavkaz orti, BAA, Isroil, Iordaniya, livan, Amman, Quvayt, Falastin) aholi soni 2-7 mln kishi oralig'ida.

Tug'ilish koeffisienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: Yaman (43 ‰), Afg'oniston (42‰), Falastin (39‰), Iroq , Saudiya Arabistoni (35‰).

Tug'ilish koeffisienti eng past bo'lgan davlatlar: Gruziya (9‰), Kipr (12‰), Armaniston, Ozarbayjon (14‰).

Janubi G'arbiy Osiyo davlatlarining demografik ko'rsatkichlari

№	Davlatlar	Aholisi, mln.kishi	Tabiiy o'sish, %	Urbanizatsiy a darajasi, %
1.	Afg'oniston	31,6	2,7	18
2.	Baxreyn	0,7	1,5	81
3.	Isroil	6,4	1,2	91
4.	Iordaniya	5,9	2,5	70
5.	Iroq	26,8	2,7	73
6.	Eron	68,7	1,1	54
7.	Yaman	21,5	3,5	25
8.	Qatar	0,9	2,5	90
9.	Kipr	0,8	0,5	62
10.	Quvayt	2,4	3,5	-
11.	Livan	3,9	1,2	84
12.	BAA	2,7	1,5	78
13.	Ummon	3,1	3,3	11
14.	Falastin Avtonomiyasi	3,9	3,1	-
15.	Saudiya Arabistoni	27,0	2,2	77
16.	Suriya	18,9	2,3	50
17.	Turkiya	70,4	1,1	59
18.	Armaniston	3,1	4	64
19.	Ozarbayjon	9,2	11	54
20.	Gruziya	4,3	4	53

O'lim koeffisienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: dunyo bo'yicha 9 ‰. Afg'oniston (18‰), Iroq va Yaman (10‰).

O'lim koeffisienti eng past davlatlar: BAA, Quvayt (2‰), Baxraynda (3‰).

Chaqaloqlar o'limi eng yuqori Afg'onistonda (154‰); eng kam Kipr va Isroilda (5‰).

15 yoshgacha bo'lganlar soni eng ko'p davlatlar: Yaman (48%), Iroq (47%), Falastinda (46 ‰), Saudiya Arabistoni (43 ‰).

15 yoshgacha bo'lganlar soni eng kam davlatlar: Gruziya (20%), Kipr (22 ‰), Armaniston (24 ‰).

64 yoshdan yuqori bo'lganlar soni eng ko'p va eng kam bo'lgan davlatlar: Gruziya (14 ‰), Kipr, Katar (11%), BAA (1‰), Quvayt (2 ‰).

YaMM miqdori mintaqada eng yuqori davlatlar : Quvaytda (21500\$), Kiprda (21100\$), eng past: Yaman (730\$).

Aholi asosan mintaqada davlatlaridagi tabiiy sharoiti qulay hududlarida istiqomat qiladilar. CHo'l, chalacho'l hududlarida aholi deyarli yashamasa, daryo vodiylari hamda dengizbo'yida aholi zichligi yuqori. Masalan, Isroilning 60% aholisi davlatning 10% tabiiy sharoiti qulay hududlarida istiqomat qiladilar. Aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 37 kishi bo'lgani holda O'rta Yer, Qora va Kaspiy sohillarida 50-100 kishi, baland tog` va cho'llarda 1-10 kishiga to'g'ri keladi. [7]

Umumiy aholining 60% qishloqlarda istiqomat qiladi. Lekin, iqtisodiy rivojlangan neftni eksport qiluvchi va ko'chirma kapitalizm davlatlarida aholining katta qismi shaharlarda yashaydilar. Urbanizatsiya darajasi Quvaytda 96 %, Isroilda 92 % , Katarda 80 %. Afg'oniston, Saudiya Arabistonida esa aholining urbanizatsiya darajasi ancha past.

Regionda joylashgan shaharlarning aksariyatida 10 mingdan ortiq aholi yashaydi. Mintaqa tarkibiga kiruvchi 12 davlat hududda 21 dan ortiq millioner shahar va shahar aglomerasiyalari mavjud. Ular ichida Istambul va Tehron eng yirigidir. (5-jadvalga qaralsin)

Aholisining etnik tarkibiga ko'ra Arabiston yarimoroli davlatlari bir millatli, Turkiya, Iroq, Eron, Afg'oniston kabi davlatlar esa ko'p millatlidir. Aholisi asosan semit, eron va turk til guruhlariga tegishli bo'lib, semit guruhiga mintaqaning 12 davlatining asosiy aholisini tashkil etuvchi arablar kiradi.

Eron guruhi tillarida forslar, pushtunlar, kurdlar so'zlashsalar turk guruhi tillari turklar, ozarbayjonliklar uchun xos. Umuman aholining 40% eron, 30%dan ortig'i semit, 25% turk guruhlariga tarkibiga kiruvchi tillarda so'zlashadilar. Ular bilan birgalikda grek, arman, gruzin kabi tillarda so'zlashuvchilar ham istiqomat qiladilar.

Irqiyl tarkib jihatdan asosan janubiy yevropoid kichik irqi vakillari istiqomat qiladi. SHu bilan monogoloid va negroid irqi vakillari ham salmoqli miqdorga ega.

Janubi-g'arbiy Osiyoning millioner shaharlari

Mintaqa davlatlari	Millioner shaharlar
Armaniston	Erevan
Gruziya	Tbilissi
Ozarbayjon	Boku
Iordaniya	Omman
Yaman	Sana
Livan	Bayrut
BAA	Abu-dabi, Dubay
Suriya	Damashq, Xalab
Saudiya Arabistoni	Jidda, Makka, Ar-Riyod
Iroq	Bag'dod, Basra, Mosul, Erbil
Turkiya	Adana, Anqara, Busra, Gaziatep, Izmir, Istanbul
Eron	Isfaxon, Karadj, Mashhad, Tabriz, Tehron, SHeroz

Mintaqada islom dini vakillari ko'pchilikni tashkil qiladi. Islom dinining sunna mazhabi vakillari bilan birga Eron, Ozarbayjon kabi davlatlarda shialar ham istiqomat qiladilar. Bundan tashqari, Gruziya va Armanistonda xristianlik, Isroilda esa yahudiylik keng tarqalgan. Janubi-g'arbiy Osiyoda yuzaga kelayotgan asosiy notinchliklarning asl sababi ham diniy nizolar asosida kelib chiqmoqda. Makka va madina shaharlari musulmonlar uchun, Ierusalim shahri esa xristian, musulmon va iudaistlar uchun muqaddas joy sanaladi.

Mintaqa aholisining asosiy qismi xizmat ko'rsatish sohalarida band. Nomoddiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining turizm, qulay geografik o'rni ofshor zona sifatida bank ishi va moliya xizmatlari sohalarining rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Bundan tashqari, dengiz portlarida transport xizmatlari ko'rsatish ham yuqori darajada rivojlangan.

Umumiy migratsion sal'do musbat xarakterga ega bo'lishiga qaramay, Afg'oniston, Yaman kabi davlatlarda u manfiy ko'rsatkichga ega. Asosan neft qazib oluvchi hamda Turkiya, Isroil kabi davlatlarda emmigrantlar miqdori yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Neft sanoatida ishlash uchun Janubiy, Janubi-sharqiy Osiyo va Afrikadan keluvchi migrant ishchilar hisobiga mintaqada erkaklar salmog'i ayollar salmog'idan ancha yuqori.

Asosan aholi takror barpo bo'lishiga ko'ra progressiv davlatlardan iborat bo'lgan mintaqada mehnat resurslar miqdoriy rivojlanishi yuqori bo'lishiga qaramay, ko'p hollarda sifatiy rivojlanish holati pastligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu holat savodxonlik darajasida yaqqol seziladi. SHu sababli mintaqaning fantalab tarmoqlarida xizmat qilish uchun asosan xorijiy mutaxassislar xizmatidan foydalaniladi.

II – BOB. JANUBI-G'ARBIY OSIYO DAVLATLARI XO'JALIGINING RIVOJLANISHI.

2.1. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligiga umumiy tavsif.

Mintaqa davlatlari xo'jaligi rivojlanishi bir qator omillar ta'siri natijasida shakllanadi. Asosiy o'rinda albatta, xom-ashyo omili ta'siri yuqori hisoblanadi. Uning ta'sirida hozirgi kunda Turkiya, Isroil, neft eksport qiluvchi davlatlarda og'ir sanoatning bir qator tarmoqlari rivojlangan. Keyingi ta'sir etuvchi omil bu – tabiiy sharoit omilidir. Uning ta'siri natijasida mintaqada o'ziga xos qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlangan. Asosan ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi donchilik bilan bir qatorda bog'dorchilik, qo'y va echkichilik tarmoqlari davlatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. SHu bilan bir qatorda mintaqada suv muammosining keskin ekanligi sug'orishning yangicha usullaridan foydalanish, intensiv dehqonchilikni rivojlantirish zaruratini tug'diradi. Hozirgi kunda Isroil, Saudiya Arabistoni davlatlari qishloq xo'jalik tajribasining ko'plab davlatlar tomonidan o'rganilib, ularning o'zlari uchun mos jihatlari o'zlashtirilmoqda. Ayniqsa, Isroilning tomchilab sug'orish texnologiyasi, Saudiya Arabistonining bug'doy yetishtirish, gulchilik sohalarida erishilgan yutuqlar jahon ommaviy axborot vositalari tomonidan ko'p bora yoritilgan. Uchinchidan, qulay transport geografik o'rin holati. Suvaysh kanali, Ormuz, Bosfor, Dardanell bo'g'ozlari hamda Berlin – Bag'dod temir yo'li yaqinida joylashgan davlatlar transport xizmatlari ko'rsatish orqali o'z iqtisodiyotini rivojlantira olganlar. To'rtinchidan, mintaqa aholisining milliy an'analari. Ularning hunarmandchilik, gilamdo'zlik tarmoqlari Suriya, Turkiya kabi davlatlar iqtisodiyotida o'z o'rniga ega. [9]

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining YaMMi tarmoq tarkibi tahlil qilinganda, ularni yaratuvchi tarmoqlar salmog'iga qarab ularni turli guruhlariga ajratish mumkin (6-jadval).

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari YaMMning tarmoq tarkibi

№	Davlatlar	YaMMning tarmoq tarkibi, %		
		Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmat ko'rsatish
1.	Afg'oniston	60	20	20
2.	Baxrayn	0,7	41	58,4
3.	Isroil	2,8	37,7	59,5
4.	Iordaniya	2,4	26	71,5
5.	Iroq	13,6	58,6	27,8
6.	Eron	11,2	40,9	48,7
7.	Yaman	15,5	44,7	39,7
8.	Qatar	0,3	58,2	41,5
9.	Kipr			
	Grek hududi	4,1	19,9	76
	Turk hududi	10,6	20,5	68,9
10.	Quvayt	0,4	60,5	39,1
11.	Livan	12	21	67
12.	BAA	4	58,5	37,5
13.	Ummon	3,1	41,1	55,8
14.	Saudiya Arabistoni	4,2	67,2	28,6
15.	Suriya	25	31	44
16.	Turkiya	9,1	27	63,9
17.	Armaniston	22,9	36,1	41,1
18.	Ozarbayjon	14,1	45,7	40,2
19.	Gruziya	20,5	22,6	56,9

Ular orasida Baxrayn, Isroil, Iordaniya, Qatar, Quvayt, BAA, Ummon, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar industrial, Iroq, Eron, Yaman, Turkiya, Livan, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlar industrial-agrar davlatlar hisoblansa, Afg'oniston tipik agrar davlat sanaladi.

Mintaqada asosiy rivojlangan sanoat tarmog'i neftni qazib olish va uni qayta ishlashdir. (7-jadval) Neft asosan Fors ko'rfazi va uning shel'f zonasidan qazib olinadi. Agar dunyo bo'yicha yiliga jon boshiga 500 kg neft qazib chiqarilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Fors qo'ltig'i bo'yida 3,3 ming t. ni tashkil etadi. Fors korfazi bo'yi davlatlari yiliga 800 mln t.dan ortiq neft qazib oladi va eksport qiladi. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida Saudiya Arabistoni yetakchilik qiladi va jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Lekin neft qazib olish va qayta ishlash oralig'ida katta tafovut seziladi. Qayta ishlanmagan neftning asosiy qismi G'arbiy Yevropa va AQSHga eksportga yuboriladi.

7-jadval

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni

Sanoat tarmog'i	Davlatlar	Miqdori	Jahonda tutgan o'rin
Neft qazib olish	Saudiya Arabistoni	468 mln.t	ikkinchi
	Eron	203 mln.t	to'rtinchi
	BAA	131 mln.t	sakkizinchi
	Quvayt	123 mln.t	o'ninchi
Gaz qazib olish	Eron	139 mlrd. m ³	to'rtinchi
	Qatar	117 mlrd. m ³	beshtinchi
	Saudiya Arabistoni	84 mlrd. m ³	sakkizinchi
Qo'ng'ir ko'mir qazib olish	Turkiya	61 mln.t	sakkizinchi
Po'lat quyish	Turkiya	29,1 mln.t	o'ninchi
Birlamchi alyuminiy ishlab chiqarish	BAA	1,4 mln.t	ettinchi
	Baxrayn	0,9 mln.t	to'qqizinchi
Engil avtomobillar ishlab chiqarish	Eron	1,37 ming dona	o'ninchi
Azotli o'g'it ishlab chiqarish	Saudiya Arabistoni	1299 ming t	o'ninchi
Kaliyli o'g'it ishlab chiqarish	Isroil	2,1 mln.t	oltinchi
	Iordaniya	1,2 mln.t	ettinchi
Kimyoviy tola ishlab chiqarish	Turkiya	1,0 mln.t	sakkizinchi
TSement ishlab chiqarish	Turkiya	60,0 mln.t	to'rtinchi
	Eron	55,0 mln.t	ettinchi

Uning faqat 1/3 qismi (250 mln t) shu joyda qayta ishlanadi. Eng yirik neftni qayta ishlash korxonalari Saudiya Arabistoni, Eron, Quvayt va BAA da joylashgan. Asosiy neftni qayta ishlash korxonalari Al-jubayl va Yanbu(Saudiya Arabistoni), Ash-SHuayba (Quvayt), Ruvays (BAA) va Umm-Said (Qatar) shaharlarida joylashgan. Aynan shu mamlakatlar eksportining 90-95 % ini neft va neft mahsulotlari tashkil etadi. SHu bilan birga neft bilan bog'liq holda elektr energetika va kimyo sanoatlari ham rivojlanmoqda.

Jun-gazlama va ip-gazlama to'qimachiligi Turkiyada, gilam to'qish Eron va Afg'onistonda rivojlangan.

Qora metallurgiya sanoati Turkiya, Eron va Gruziyada, mashinasozlik Turkiya va Isroilda rivojlangan. Janubi- G'arbiy Osiyoning eng yirik sanoat markazlari: Istanbul, Tel- Aviv va Tehron shaharlarida; kichikroq sanoat markazlari: Anqara, Izmir, bog'dod shaharlarida joylashgan. Mazkur sanoat markazlarini va aholini asosan IES lar, qisman GES lar energiya bilan ta'minlaydi. Eronda AQSH va Evropa iqtisodi qarishiligiga qaramay AES qurilmoqda.

Mintaqa mamlakatlarining ko'pchiligi agrar-industrial rivojlanish hususiyatiga ega, shuning uchun ularning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Lekin ko'p mamlakatlarni qishloq xo'jaligi oziq-ovqat bilan taminlay olmaydi. Bunga sabab: mexanizasiya va kimyodan kam foydalanish, shuningdek suv tanqisligidir. Zamonaviy sug'orish usullaridan Isroil, Suriya, Iroq kabi davlatlar foydalanmoqda.

Qishloq xo'jaligining yetakchi salmog'i dehqonchilik hisoblanadi. Asosan sug'orma dehqonchilik rivojlantirilgan. Asosan iste'mol uchun bug'doy, makajo'xori, arpa yetishtiriladi. O'rta yer dengizi davlatlarida sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik rivojlangan bo'lib, ular bilan bir qatorda zaytun mevalari yetishtirish katta o'rin egallaydi va aynan mazkur dehqonchilik turi bo'yicha mintaqa jahonda yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus mevalari, g'alla etishtirish, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxtachilik, Iroq, Suriya va isroilda paxta, tamaki va xurmo, Arabiston yarimoroli davlatlarida xurmo etishtirish rivojlangan. Turkiyada angor echki

boqish, Arabiston yarimoroli davlatlarida tuya boqish, Eron va Afg'onistonda qorako'lichilik rivojlangan. Transport tarmog'i yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mintaqada davlatlari iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Bu davlatlarda transportning barcha tarmoqlari rivojlangan bo'lib, Eron, Turkiya, Kavkaz orti davlatlarida temir yo'l transporti, Turkiya, o'rta Er dengizi bo'ylari va Kavkaz ortida avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Temir yo'llarning uzunligi Turkiyada 10 ming km, Eronda 5,2 ming km, Saudiya Arabistonida 700 km.

Quvur transporti Saudiya Arabistonida yaxshi rivojlangan. Shuningdek Eron, Iroq, Turkiya va Ozarbayjonda ham quvur transporti mavjud. Temir yo'llarning umumiy uzunligi: Afg'onistonda 11 km, Iordaniyada 600 km, Iroqda 3000 km, Isroilda 830 km, Livanda 408 km, Suriyada 1400 km. Afg'oniston, Baxrayn, Katar, BAA, Quvayt, Oman, Yaman, Kipr kabi davlatlarda temir yo'llar yo'q.

Janubi-G'arbiy Osiyoda asosan dengiz transporti rivojlangan bo'lib, u tashqi savdoda muhim rol o'ynaydi. Istanbul, Izmir, Bayrut, Xayfa, Adan mintaqaning eng katta yuk aylanmasiga ega port shaharlari hisoblanadi. [13]

Fors korfazida faqat neft eksport qiluvchi maxsus portlar mavjud: Ras-Tannura, Obodon, El-Jubdil, El-Jubail, Bender-Abbas, Maskad kabilardir. Universal portlardan eng yiriklari: Jidda va Yanbu (Saudiya Arabistoni).

Tashqi savdo sheriklari AQSH, Yaponiya va Xorijiy Yevropa davlatlari hisoblanib, neft-gaz, neft-kimyosanoati mahsulotlari, sun'iy matolar, kraskalar, jun-mato (angorka), xurmo, sitrus, qorako'l, fosforit, kaliy tuzi kabilarni eksport qiladi.

Asosiy importi esa mashina va jihozlar, qorametallurgiya mahsulotlari, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlaridan iborat.

Pul birligi: Iordaniya, Baxrayn, Quvayt, Iroqda – dinar;

Oman, Saudiya Arabistoni, Yaman, Katar, Eronda – riol;

Livan, Kipr, Suriyada – funt ;

BAA da – dirxam ;

Isroilda – shekel;

Turkiya – lira;

2.2. Mintaqa davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish tafovvutlari

Turli ilmiy manbaalarda davlatlar iqtisodiyotining rivojlanish holati e'tiborga olingan holda guruhlariga ajratish jarayoni ko'rsatib o'tilgan. Ularni guruhlashtirishda birinchi navbatda, YaMMning aholi jon boshiga salmog'i, umumiy sanoat tarmoqlari orasida undiruvchi sanoat ulushi, aholining savodxonlik darajasi kabi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida Lomonosov nomidagi MDU geograf olimlari tomonidan taklif etilgan guruhlashtirish asos qilib olindi (8-jadval).

8-jadval

Jahon davlatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ko'ra guruhlashtirish

I. Iqtisodi rivojlangan davlatlar	<i>I.1 Yuqori rivojlangan davlatlar</i>	Asosiy davlatlar	AQSH, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya
		Iqtisodi yuqori rivojlangan G'arbiy Yevropaning kichik davlatlari	SHveytsariya, Avstriya, Bel'giya, Niderlandiya, Skandinaviya davlatlari va b.
		“Ko'chirma kapitalizm” davlatlari	Kanada, Avstraliya, Yangi Zellandiya va b.
II. Iqtisodi o'rta rivojlangan davlatlar	<i>II.1. G'arbiy Yevropaning iqtisodi o'rtacha rivojlangan davlatlari</i>		Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya va b.
	<i>II. 2. SHarqiy Yevropaning iqtisodi o'rtacha rivojlangan davlatlari</i>		CHexiya, Vengriya, Sloveniya, Pol'sha, Slovakiya
III. Iqtisodi past darajada rivojlangan davlatlar	<i>III.1. Tayanch davlatlar</i>		Braziliya, Meksika, Hindiston, Xitoy
	<i>III.2. Kapitalistik</i>	2.1. Ko'chirma	Argentina,

	<i>munosabatlar shakllangan davlatlar</i>	davlatlar	Urugvay
		2.2. Kapitalistik yo'nalishdagi yirik anklav davlat	Venesuela, CHili, Eron, Iroq
		2.3. Ichki iqtisodiyotga moslashgan davlatlar	Kolumbiya, Peru, Tunis, Suriya, Misr va b.
		2.4. "Kontsession" rivojlanishga ega davlatlar	Yamayka, Trinidad va tobago, Surinam va b.
		2.5. Plantatsion xo'jalik rivojlangan davlatlar	Kosta-Rika, Nikaragua, Kuba, Gaiti va b.
		2.6. Ijarachi davlatlar	Bermud, Virgin orollari va b.
		2.7. Neft eksport qiluvchi davlatlari	Saudiya Arabistoni, BAA, Kuvayt va b.
		2.8. Yirik past daromadli davlatlar	Indoneziya, Pokiston, Bangladesh va b.
	<i>III.3. Yangi ozod bo'lgan davlatlar</i>	3.1. Sobiq sotsialistik davlatlar	
		3.2. Past rivojlangan qoloq davlatlar	

Bundan tashqari, BMT tomonidan davlatlarning aholi jon boshiga YaMM miqdoriga ko'ra ham guruhlashtirish amalga oshirilgan:

1500 \$gacha – qashshoq

1500-3000 \$ - juda kambag'al

3000-5000 \$ - kambag'al

5000-10000 \$ - qoniqarli darajada ta'minlangan

10000-15000 \$ - o'rtacha darajada ta'minlangan

25000-20000 \$ - yetarli darajada ta'minlangan

20000 \$dan ortiq – boy. [3,8]

Mintaqa davlatlarida yuqorida ta’kidlangan ko’rsatkich bo’yicha quyidagi holat namoyon bo’ladi: (9-jadval)

9-jadval

Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlarida aholi jon boshiga YaMM ko’rsatkichi

№	Davlatlar	Aholi jon boshiga YaMM, ming dollar hisobida
1.	Afg’oniston	860
2.	Baxreyn	33690
3.	Isroil	27010
4.	Iordaniya	5730
5.	Iroq	3330
6.	Eron	11470
7.	Yaman	2330
8.	Qatar	29400
9.	Kipr	30290
10.	Quvayt	21600
11.	Livan	13400
12.	BAA	49700
13.	Ummon	24530
14.	Falastin Avtonomiyasi	1500
15.	Saudiya Arabistoni	24020
16.	Suriya	4620
17.	Turkiya	13500
18.	Armaniston	5410
19.	Ozarbayjon	9020
20	Gruziya	4700
	Janubi-g’arbiy Osiyo	10560

Jadvaldan ko’rish mumkin-ki, Janubiy-g’arbiy Osiyo davlatlari aholi jon boshiga to’g’ri keluvchi YaMM ko’rsatkichi bo’yicha o’ta boy davlatlar bilan

bir qatorda qashshoq, kambag'al, o'rta darajada ta'minlangan davlatlar ham mavjud. Jadval ma'lumotlariga ko'ra Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida 10 tasida ko'rsatkichlari mintaqa o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriligini ko'rish mumkin.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMM ko'rsatkichi mintaqa ko'rsatkichidan past bo'lgan 10 davlat - Afg'oniston, Iroq, Suriya, Livan, Falastin muxtoriyati, Afg'oniston, Yaman, Armaniston, Ozarbayjon va Gruziya iqtisodiyotining rivojlanishidagi bu holat ularning ko'p hollarda davlatlardagi siyosiy vaziyat, iqtisodiy geografik o'rin noqulayliklari asosida yuzaga keladi. Ayniqsa, Afg'oniston, Iroq, Falastin Muxtoriyati hududida so'nggi o'n yilliklarda yuz berayotgan harbiy harakatlar ularning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etgan.

Ushbu guruhlashtirish mezonlaridan kelib chiqqan holda Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarini ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish holatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Iqtisodi rivojlangan davlat – Kipr;
- “Ko'chirma kapitalizm” davlati – Isroil;
- “Yangi sanoatlashgan davlat” – Turkiya;
- Kapitalistik yo'nalishdagi yirik anklav davlatlar – Eron, Iroq;
- Ichki iqtisodiyotga moslashgan davlatlar – Suriya, Livan, Iordaniya, Yaman;
- Neft eksport qiluvchi davlatlar – Saudiya Arabistoni, BAA, Baxrayn, Quvayt, Qatar, Ummon;
- Sobiq sotsialistik davlatlar – Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon;
- Qoloq davlat – Afg'oniston. [7]

Umuman, Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasi davlatlari xo'jaligi o'rganib chiqilganda uning rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga egaligini ko'rish mumkin:

1. Ishlab chiqarishning qoloqligi.
2. Qishloq xo'jaligining ekstensiv, kam tovar, past samaradorlikka ega monokul'tura ixtisoslashuviga egaligi.

3. Iqtisodiyoti asosan tashqi bozor bilan bog'liqligi.
4. Qayta ishlovchi tarmoqlarning yuqori bosqichi mavjud bo'lmagan, hunarmandchilik sohasining asosiy tarmoq ekanligi.
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarning past unumdorlikka egaligi.

Mintaqa davlatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan tafovutlar bir qator omillar bilan bog'liq. Bular quyidagilar:

1. Tabiiy resurslar, ayniqsa ular orasida mineral resurs turlari bilan ta'minlanish holati.

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida Fors ko'rfazi va Kaspiybo'yi davlatlari neft va gazga, Old Osiyo hududi rangli metallarga boyligi bilan ajralib tursa, Yaman mintaqa davlatlari orasida mineral resurslarga kambag'alligi bilan ajralib turadi.

2. Davlatlardagi siyosiy vaziyatning nisbatan beqaror ekanligi. Mintaqada ko'p yillardan buyon o'z yechimini topa olmayotgan Isroil – Falastin muammosi, Eronning yadroviy qurollanish dasturiga nisbatan qo'llanilayotgan turli cheklovlar, Iroq hududida olib borilgan harbiy harakatlar shular jumlasidandir. So'nggi yillarda qo'shni SHimoliy Afrikada yuzaga kelgan “arab inqilobi” ham mintaqa davlatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Suriya mojarosini qo'shni mintaqa notinchliklarining Janubiy-g'arbiy Osiyodagi davomi sifatida ko'rish mumkin.

3. Xorijiy investitsiyalarning yo'naltirilganlik holati. Janubiy-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida neftni eksport qiluvchi davlatlar asosiy o'rin tutadi. Bu davlatlarga 1980-yillardan boshlab katta miqdordagi xorijiy sarmoyalarning yo'naltirilganligi shu davrgacha rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarning tez su'ratlarda iqtisodiy o'sishga erishishiga olib keldi.

Ushbu davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishi o'z hududlarida mavjud bo'lgan boy tabiiy resurslar bilan bog'liq. Bu davlatlar neft, gaz, turli rangli metallar zahirasi ko'ra jahonda yetakchilik qiladilar. Bundan tashqari, iqtisodiy, transport geografik o'rin qulayliklari natijasida mintaqada xizmat


ko'rsatish sohalari keng rivojlangan. Ayniqsa, sayyohlarning bu mintaqaga qiziqishlari yildanyilga ortib bormoqda. Turkiya, BAA, Baxrayn kabi davlatlar yil davomida sayyohlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatmoqda. Saudiya Arabistonida esa diniy turizm rivojlangan. Islom ahkomlaridan biri hisoblangan haj ziyoratini amalga oshirish uchun jahonning turli davlatlaridan keluvchi ziyoratchilar Makka va Madina shaharlarida haj amallarini bajaradilar.

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti rivojlanish holatiga ko'ra ular orasida iqtisodi rivojlangan Kipr Respublikasi alohida ajralib turadi. Uning iqtisodiyotida nomoddiy soha tarmog'i – turizmning ahamiyati kuchli bo'lib, bunda mazkur davlatning geografik o'rni va tabiiy sharoiti katta rol' o'ynagan. Moddiy soha tarmoqlaridan oziq-ovqat, metallurgiya, kimyo sanoatlarigina nisbatan katta salmoqqa ega (2-chizmaga qaralsin).

“Ko'chirma kapitalizm” davlati hisoblangan Isroil Ikkinchi Jahon urushidan so'ng AQSH yordamida jahon siyosiy kartasida va xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'lgan. U tipik industrial xarakterdagi davlat bo'lib, iqtisodiyotida yuqori texnologik ishlab chiqarish jarayonlari rivojlantirilgan aniq mashinasozlik tarmoqlari – elektronika va elektrotexnika sanoatlari, tibbiy jihozlar ishlab chiqaruvchi asbobsozlik sohalari, kimyo, yengil, oziq-ovqat kabi sanoat tarmoqlari rivojlangan. Bundan tashqari, mazkur davlat dondan tashqari, deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'z aholisini ta'minlay oladi.

Turkiya Respublikasi o'z iqtisodiyoti rivojida mahalliy tabiiy resurs imkoniyatlaridan to'liq foydalana olgan davlat hisoblanadi. U hozirgi kunda tog'-kon, ko'mir, qora metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati tarmoqlarida mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha jahondagi yetakchi davlatlar guruhiga kiradi. So'nggi yillarda davlatda iqtisodiyotida mashinasozlik sanoati bilan bir qatorda, an'anaviy tarmoqlar hisoblangan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining ham salmog'i ortib bormoqda. Bunda jahonning yirik TMKlarining ta'siri katta bo'lib hisoblanadi. [9]

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining iqtisodiy kartasi



Eron va Iroq kapitalistik yo'nalishdagi yirik anklav davlatlar sifatida iqtisodiyoti rivojida tovar-pul munosabatlari shakllangan ilk kapitalistik munosabatlar shakllangan davrlarda o'z hududida mavjud bo'lgan asosiy mineral resursi – neftdan keng miqyosda foydalanganlar. Kichik salmoqdagi aholi bandligi mavjud bo'lgan neft sanoati davlatlar YaMMning asosiy qismini beradi.

Ichki iqtisodiyotga moslashgan davlatlar hisoblangan Suriya, Livan, Iordaniya, Yaman davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishi o'z hududlarida boy tabiiy resurslar bo'lishiga qaramay, aholisining turli diniy, milliy qatlam va guruhlariga mansubligi, ichki nizolar davlatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Xorijiy investitsiya oqimini pasaytiradi.

Neft eksport qiluvchi davlatlarga asosan Fors ko'rfazi hududida joylashgan Saudiya Arabistoni, BAA, Baxrayn, Quvayt, Qatar, Ummon davlatlarini kiritish mumkin. Asosan 1960-yillardan boshlab o'z hududida mavjud bo'lgan mineral resurs imkoniyatidan foydalanib boshlagan bu davlatlar tez fursatda jahonning iqtisodi rivojlangan davlatlari bilan tenglasha oladigan ijtimoiy farovonlik holatiga erisha oldilar. Sahrodagi "jannat"ni barpo etgan ushbu davlatlar farovonligi bevosita eksport qilinadigan neft salmog'iga bog'liq bo'lib, so'nggi yillarda mazkur yoqilg'i turi zahirasi kamayishi ular oldida yangi iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Kelajakda mazkur guruh davlatlari iqtisodiyotida quyidagi o'zgarishlar yuz berishi ko'tilmoqda:

- 1) Iqtisodiyotni diversifikatsiyalashtirish;
- 2) Xorijiy davlatlarga keng miqyosda kapital quyilmalar joylashtirish;
- 3) Asosiy bandlik mavjud sohalarida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni mahalliyashtirish, ya'ni mahalliy kadrlarni kasbiy mahoratini oshirish.

Armaniston, Ozarbayjon va Gruziya kabi sobiq sotsialistik tuzumga ega davlatlar o'z milliy iqtisodiyotlarini sobiq SSSR rasman o'z faolichtini tugatgan davrdan boshlab qayta qurishga majbur bo'lganlar. Jahon iqtisodiyotida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga harakat qilayotgan mazkur davlatlar birinchi navbatda o'z tabiiy resurs imkoniyatlariga tayanmoqdalar. Ular

orasida Kaspiybo'yi hududidagi boy neft konlariga ega bo'lgan Ozarbayjon iqtisodiyoti guruhning boshqa davlatlarinikiga qaraganda rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Qolgan ikki davlatda mavjud bo'lgan siyosiy muammolar ham ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

1970-yillarning o'rtalaridan boshlab yuz berayotgan siyosiy notinchliklar Afg'oniston iqtisodiyotining to'liq izdan chiqishiga sababchi bo'lgan. Hozirda Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasidagi yagona qoloq davlat hisoblangan Afg'onistonda ichki iste'mol uchun turli dehqonchilik mahsulotlari yetishtiriladi. SHu bilan bir qatorda hozirda u terrorizm, narkotrafik kabi jamiyat uchun illat hisoblangan holatlarning markazi bo'lib hisoblanmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar hech qanday natija bermayapti.

Demak, Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti ularning tabiiy resurs imkoniyatlari va davlatlarda mavjud bo'lgan siyosiy vaziyat bilan bevosita bog'liq ekan.

III BOB. “JANUBI-G’ARBIY OSIYO DAVLATLARI IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI” MAVZUSINI O’QITISH METODIKASI

3.1. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Bugungi kunda global muloqat makoni inson kundalik hayotining zarur shartiga aylanmoqda. Zero, dunyo bilan erkin muloqatga kirishmasdan jahon hamjamiyati taraqqiyotiga erishib bo’lmaydi. Global aloqada barkamol shaxs asosiy o’rin tutadi. Binobarin, intnsiv mukammal ta’lim jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Bunga ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llamasdan erishib bo’lmaydi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” geografiyaning iqtisodiy yo’nalishi fanlari guruhiga kiradi. Umuman geografiya rivojlanish holatiga ko’ra qadimiy fanlar sirasiga kirsa-da, iqtisodiy yo’nalishi nisbatan keyingi davrlarda shakllangan. M.Lomonosov 1760 yil birinchi marotaba geografiya fanlari tizimida iqtisodiy geografiya yo’nalishini shakllantirish zaraurligi haqida o’z fikrlarini bildirib, ularni ilmiy asoslaganiga qaramay ushbu yo’nalishninng fan bo’lib shakllanishi uchun deyarli ikki asr vaqt zarur bo’ldi. 1929 yil N.Baranskiy tomonidan MDUda “Iqtisodiy geografiya” kafedrasi tashkil qilingan bo’lib, oradan besh yil o’tgan I.Vitver rahbarligida ushbu kafedra negizidan “CHet mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kafedrasi ajralib chiqib, mustaqil faoliyat olib bora boshladi. Ular turli mamlakatlar va mintaqalardagi iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish holati, uning xususiyatlarini turli statistik ma’lumotlar asosida tahlil etib, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqqanlar va fanning rivojlanishiga xissa qo’shganlar. O’zbekistonda “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geogr2afiyasi” fani 1950 yillardan boshlab o’qitila boshlangan.

Hozirda fanni o’qitishda ko’plab olimlar tomonidan taklif etilayotgan zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish mumkin. Masalan:

“Aqliy xujum” – muayyan o’quv predmetining dasturidan kelib chiqqan har bir muammo yechimini o’quvchilar jamoasiga havola qilib, ular tomonidan bildirilgan fikrlarni to’plab shu asosda ma’lum bir yechimga kelinadigan usuldir.

“Aqliy hujum” usuli pedagog tomonidan qo’yilgan quyidagi maqsadlarni amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo’yilganda, bu usul o’quv jarayoniing kirish qismida amalga oshiriladi;
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda, yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.
3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda, asosiy mavzuni o’tib bo’linganidan so’ng amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” usulini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

- O’quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar tanqid qilinmaydi va baholanmaydi;
- Bildirilgan har qanday fikr, u xattoki noto’g’ri bo’lsa ham inobatga olinadi;
- Fikr berishda har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Bu usulning bosqichlari quyidagilar;

1. Ta’lim oluvchilarga muammoli savol qo’yiladi va ularga shu savol bo’yicha o’z fikrlarini bildirishlari so’raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savolga nisbatan o’z fikrlarini bildiradilar;
3. Ta’lim oluvchilarning fikrlari doskaga yozib boriladi;
4. Bildirilgan fikrlarning ma’lum belgilari bo’yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi va qolgan javoblarga sharh beriladi.

“Aqliy xujum” usulini qo’llashdan maqsad – o’quvchilarning Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslari haqida ega bo’lgan bilimlarini sinab ko’rishdan iborat. SHuning uchun ushbu usul darsning yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi. [5]

“Yo’naltiruvchi matn” – ta’lim oluvchilardan mustaqil ravishda yo’naltiruvchi savollar yordamida ma’lumot yig’ish, o’quv jarayonini rejalashtirish va uni amalga oshirish vazifasini bajaradigan usul.

Bu usulning barcha bosqichlarida pedagog faoliyati “passiv”, ta’lim oluvchilar faoliyati esa “aktiv” bo’ladi. Chunki ta’lim oluvchilar pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko’rsatadilar. “Yo’naltiruvchi matn” usulidan o’quv amaliyoti mashg’ulotlarida foydalanish darsning ta’limiy maqsadiga erishishda katta yordam beradi.

Ma’lumot yig’ish, rejalashtirish faoliyatni amalga oshirish va faoliyat yakunini tekshirish bosqichlarida ta’lim oluvchi mustaqil ishlaydi. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida ta’lim oluvchilar va pedagog orasida “qaytar aloqa” o’rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. O’quv mashg’ulotining boshlang’ich bosqichida ta’lim oluvchilarga pedagog tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlar tarkibiga texnik chizmalar, jadvallar, yo’naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

“Yo’naltiruvchi matn” usulida pedagog va ta’lim oluvchilar faoliyati quyidagilardan iborat:

10-jadval

Pedagog faoliyati	Ta’lim oluvchilar faoliyati
1. O’quv material va yo’naltiruvchi savollar berish	1. Mustaqil ravishda ma’lumot yig’ish
2. Oldindan tayyorlangan rejalashtirishga oid varaqalarni tarqatish	2. Mustaqil ravishda reja tuzish
3. Takliflarni muhokama qilish	3. Mustaqil qaror qabul qilish
4. Muammolarni muhokama qilish	4. Mustaqil amalga oshirish
5. Baholash varaqalarini birgalikda ishlab chiqish	5. Mustaqil ravishda tekshirish
6. Birgalikda xulosa chiqarish	6. Mustaqil ravishda xulosalash

“Yo’naltiruvchi matn” usulining tuzilmasi:

1. Topshiriq berish.

2. Mustaqil ravishda ma'lumot yig'ish.
3. Mustaqil ravishda rejalashtirish.
4. Birgalikda qaror qabul qilish.
5. Mustaqil ravishda amalga oshirish.
6. O'z-o'zini tekshirish.
7. Birgalikda umumiy xulosa chiqarish.

“Yo'naltiruvchi matn” usulining bosqichlari:

1. Pedagog topshiriqlarni, tarqatma materiallarni va yo'naltiruvchi savollarni ishlab chiqadi.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar va yo'naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar va “yo'naltiruvchi matn” tuzadilar.

3. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda o'zi tuzgan “mustaqil matn” asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar tomonidan ish bosqichlari, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligi, material, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar rejalashtirilishi lozim.

4. Ta'lim oluvchilar pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishilgan natijalar muhokama qilinadi. Ta'lim oluvchilar bajariladigan ishlar ketma-ketligi bo'yicha qaror qabul qiladilar, pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

5. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlar ishtirokida amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta'lim oluvchilarning amaliy ko'nikmalari shakllanadi. Pedagog topshiriq bajarilishini “Nazorat varaqasi”ga qayd etib boradi.

6. Ta'lim oluvchilar o'zlarining ish natijalarini o'zlari tekshiradilar va “Baholash varaqasi”ni to'ldiradilar. “Baholash varaqasi”da sifat mezonlari, ya'ni talab etilgan me'yorlar beriladi va ular erishgan natija bilan taqqoslanadi.

7. Pedagog va ta'lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarni yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta'lim

oluvchilarning ish natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e'tibor berishi kerakligi ta'kidlanadi. [8]

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Klaster" usulidan foydalanish mumkin. [6]

Klaster (g'uncha, bog'lam) usuli – didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyotiy muammo yoki mavzu xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beruvchi pedagogik usul.

Mazkur usul turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risida fikrlash imkonini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" usuli aniq ob'ektga yo'naltirilgan fikrlash shakli hisoblanadi. Ushbu usul muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Klaster" usuli puxta o'ylangan ta'lim strategiyasi bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Usul guruh asosida tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan fikrlarning majmui tarzda namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkonini yaratadi.

"Klaster" usulidan foydalanishda quyidagi sharoitlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimani o'ylagan bo'lsangiz shuni qog'ozga yozing. Yozuvingizning orografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmang, ularni shunchaki yozib boring.

2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishni to'xtatmang. Agar ma'lum muddat bir fikrni o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biron narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi fikr tug'ilguncha davom ettiring.

3. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi fikrlarni ilgari surish hamda mazkur fikr o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatishga harakat

qiling. Fikrlar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatishni cheklamang.

“CHarxpalak” usuli – ta'lim oluvchilarni o'tilgan mavzularni eslashga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda iloji boricha to'la javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda pedagogni ta'lim oluvchilarning bilimlarni egallaganlik darajasini baholashga qaratilgan usul.

Usulning maqsadi: ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida mantiqan fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga va talay fikrlardan keraklisini ajrata olishga o'rgatishdan iborat.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam yoki flomaster.

Usulning qo'llanilishi: usul o'quv mashg'ulotining barcha turlarida mashg'ulotning boshlanishi yoki oxirida yoxud o'quv predmetining biron bir bo'limini tugallanganida, o'tilgan mavzularni ta'lim oluvchilar o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Mazkur usul o'quv jarayonida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu usul bo'yicha o'quv mashg'ulotini olib borish tartibi:

1. Ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratish;
2. Ta'lim oluvchilarni o'quv mashg'uloti olib borishda quyilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
3. Avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
4. Guruh a'zolari tomonidan mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalarni bajarish;

5. Har bir guruh a'zosi o'zining tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizadi;

6. Vazifasi bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi.

7. Yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

8. Guruh a'zolari tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi.

9. Materiallarni oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirilgan materiallarni, qo'ygan belgilari orqali tanlab oladilar.

10. Har bir guruh a'zosi o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydi va tahlil qiladi.

11. Pedagog tarqatma materialda berilgan vazifani o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi.

12. Har bir ta'lim oluvchi to'g'ri javob bilan o'zi bergan javobning farqini aniqlaydi va o'zini baholaydi.

13. Ta'lim oluvchilar o'z baholarini aniqlab olishgach, pedagog vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baholarni guruh jurnaliga ko'chiradi. [5,6]

Fikrimizcha, fanni o'qitishda quyidagi pedagogik (didaktik) usullardan foydalanib darslarni tashkil etish mumkin:

- Suhbat ta'lim metodi sifatida o'quv materialini egallashning savol-javob shaklidir. Bunda asosiy o'rinni o'qituvchi savoli va o'quvchi javobi egallaydi. Suhbat jarayonida o'quvchilar tushunmaganlarini o'qituvchidan so'rashlari mumkin. Suhbat darsi masalan, "Dunyoning tabiiy resurslari" mazusi

bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, "Insoniyatning global muammolari" mavzusi ham davra suhbat yoki press konferentsiya usulida tashkil etilishi mumkin.

Ba'zilar suhbat metodini savol-javob metodi bilan chalkashtiradilar. Ayni paytda ularning har ikkisi deyarli mazmuna bir xil metodlardir. Bu metodning bosh talabi – mukammal o'ylangan savollar va o'quvchilar qaytarishi mumkin bo'lgan javoblarning puxta tizimidir. Masalan, aholi sonini ko'paytirish yoki kamaytirishga qaratilgan demografik siyosat. Savol aniq bo'lishi, ya'ni o'quvchilar suhbat nima ustida borayotganligini hamisha tushunishlari kerak. Ya'ni, aholi soni ortib borayotgan yoki kamayib borayotgan davlatlarda mamlakatlarda qanday tadbirlar amalga oshirilishi kerak? Degan muammoli savol yaratilishi mumkin.

- Qisman izlanuvchanlik yoki evristik metod. Bunda o'quvchilar jadval ma'lumotlari asosida diagrammalar tuzish orqali bilimlarini mustahkamlaydilar. Hududining kattaligi bo'yicha dunyodagi birinchi beshtalik davlatni maydon ko'rsatkichlari jamiga nisbatan foizda diagrammadan foydalanish, yoki xuddi shu usulda materiklar maydoni, aholi soni, sanoat yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori bo'yicha ham amalga oshirish mumkin.

- Tadqiqot metodi. O'quvchilar faoliyati bilimlarniko'proq mustaqil izlanish asosida amalga oshiriladi. Bu metodlardan ijodkor o'qituvchilar o'z faoliyatlarida u yoki bu darajada foydalanadilar. Standart yoki ko'p marotaba takrorlanib turuvchi darslarni vaqti-vaqti bilan o'ziga xos darslar bilan har xil didaktik o'yinlar, interfaol metodlardan foydalanib, o'qitishning texnik vositalaridan, slaydlar, rasmlar, kino va videotasvirlar, ko'rgazmalar, maketlar, buyumlar, kitoblarva komp'yuter texnologiyalaridan foydalangan holda yangilab turish maqsadga muvofiqdir.

Har bir o'qituvchi tomonidan individual va o'z hohishiga binoan darslarni noan'anaviy tashkil etish mumkin.

3.2. «Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Interfaol metodlardan foydalanib, darsni tashkil qilish tabiiy fanlarni o'qitishda samarali usul ekanligi bir qator ilmiy izlanishlarda asoslangan. SHunday metodlardan biri ta'lim mazmunini modellashtirishdir. O'tkazilgan ilmiy tadqiqot xulosalariga asoslanib o'quvchilar geografik ob'ekt, hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq anglab olishlarida ularni modellashtirish orqali yuqori ta'limiy samaraga erishishlari mumkin. Ammo, geografiya ta'limidagi modellashtirish o'zining keng qamrovliligi, serqirraliligi hamda mazmundorligi bilan alohida ajralib turadi.

Bitruv malakaviy ishi mavzusi mazmuni bevosita aks etgan dars ishlanmasi tayyorlashda 9-sinf "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining "Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari, tabiati va mehnat resurslari" mavzusi asos qilib olindi. Mazkur mintaqaga bag'ishlangan mavzu 52 darsda o'rganib chiqiladi. Uni o'qitish bo'yicha o'quvchi egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka quyidagilardan iborat(8-jadval).

11-jadval

“Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari, tabiati va mehnat resurslari” mavzusini o'qitish bo'yicha o'quvchi egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka tasnifi

Bilim	Ko'nikma	Malaka
Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining hududiy chegaralari, geografik o'rniga baho berish, siyosiy xaritasining shakllanishi, aholisi haqida bilish	Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarini xaritadan ko'rsata olish	Janubi-g'arbiy Osiyo subregionlarini yozuvsiz xaritaga tushira olish

Mazkur mavzuni o'qitishda noan'anaviy usullardan foydalanilgan quyidagi dars ishlanmasini taklif etish mumkin:

Dars mavzusi: Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari, tabiati va mehnat resurslari.

I. Darsning maqsadi:

1) Ta'limiy maqsadi: Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlarining dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rni, uning tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari xakida ma'lumot berish hamda dunyoqarashlarini kengaytirish, kasbga yo'llash.

2) Tarbiyaviy maqsadi: Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasining davlatimiz bilan ko'p asrlik aloqalari, o'zbek xalqining e'tiqod qiluvchi diniy shakli – islom dini markazi ekani, jahonning mashhur xadissunos olimlari bo'lgan yurtdoshlarimiz haqida ma'lumot berish asosida milliy iftixor tarbiyani kuchaytirish.

3) Rivojlantiruvchi maqsadi: Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari, ularning iqtisodiyoti rivojlanish xususiyatlari boyicha olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish malakalarini rivojlantirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini, nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

II. Dars turi: Noan'anaviy dars.(Interfaol metod)

III. Dars uslubi: Yangi bilim berish va mustahkamlash, ma'ruza, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, muammoli o'qitish. Test

IV. Dars jixozi: Darslik, Jahon siyosiy kartasi, Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiy kartasi, 9-sinf atlas va yozuvsiz kartasi, plakat, marker, rangli qalamlar, guruhlar uchun topshiriqlar, baholash uchun rag'bat kartochkalari.

V. Dars bosqichlari: vaqti.

1. Tashkiliy qism.....2 daqiqa
2. Uyga vazifani so'rash.....10 daqiqa
3. Yangi mavzu bayoni.....10 daqiqa
4. Mavzuni mustahkamlash.....20 daqiqa
5. Baholash.....2 daqiqa
6. Uyga vazifa berish.....1 daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, dars mavzusi bilan tanishtirish, texnik vositalarni darsga tayyorlash. O'quvchilar faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish.

VI. Uyga berilgan mavzuni so'rash.

O'qituvchining kirish so'zi, aziz o'quvchilar bugun darsimiz qiziqarli, muammoli savollardan iborat bo'lib, bunda biz kichik guruhlariga ajralib, har bir kichik guruhdagi guruhdosh o'rtoqlaringiz bilan topshiriqlarni hamda uyga berilgan vazifalarni hamkorlikda javob topishga harakat qilasiz.

Oldingi darsda o'tilgan "Hindiston Respublikasi" mavzusi bo'yicha quyidagi topshiriqni bajaring:

1-ilova

1. Ўхшашликни аниқланг:

1) Агра; 2) Бакаро; 3) Дехли.
а) пойтахт; б) тарихий шаҳар; в) металлургия
маркази.

2. Мамлакатнинг тоғ-кон саноати, айниқсада кучли ривожланиб бормоқда. Бу ердаги оғир саноатнинг энг муҳим янги қурилишларини Ж..Неру “Янги Ҳиндистоннинг қасрлари” деб атаган. Ушбу фикрлар Ҳиндистоннинг қайси ҳудудига тегишли ?

3. Мамлакатда урбанизация даражаси 26 % . Ҳиндистонда 4500 та шаҳарлар бор, миллионер шаҳарлар сони 23 та. Энг йириклари: Мумбай (12,6 млн) ва Калкутта (11 млн). Картада Ҳиндистоннинг миллионер шаҳарларини белгиланг.

4. Ҳиндистон хўжалиги улкан тафоввутлар мамлакати. Масалан: бир томонда индустрлаштириш, туб аграр ислохотлар, космик дастурларни амалга оширилиши, қудратли саноат корхоналари, АЕС лар. Иккинчи томонда қашшоқ аҳоли ва қолоқ қишлоқ хўжалиги, ерсизлик, уйсизлик, ерга омон ва хўкизда ишлов бериш. Бу ҳолатнинг юзага келишига қандай омиллар таъсир этган?

IV. Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining axboroti:

Reja:

- 1. Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlariga umumiy tavsif.**
- 2. Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari tabiiy resurslari.**
- 3. Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti tarmoqlari.**
- 4. Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.**

O'qituvchi yangi mavzuni ko'rgazmali vositalar yordamida bayon etganidan so'ng, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadi.

V. O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish hamda o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish.

Mazkur mavzu matni quyidagi mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratiladi:

- Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari geografik o'rni, davlat tuzumi.
- Mintaqa davlatlari iqtisodiyot tarmoqlari.
- Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari.

Shu qismlar bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

Bunda o'quvchilardan quyidagilar talab qilinadi:

2-ilova

Amaliy ish tartibi va reglament

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish - 10 min.
2. Ishning natijalarini taqdimot qilish – 5 min.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash - 5 min.

3-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalar:

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim.
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholashda ishtirok etishlari lozim.

4-ilova

1- guruh uchun o'quv topshiriqlari

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlarni davlat tuzumiga ko'ra guruhlashtiring.	Darslikdagi matnni o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring
2.	Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishida geografik o'rin omili ta'siri xaqida ma'lumot bering	
3.	Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari sanoatiga ta'rif bering.	

2- guruh uchun o'quv topshiriqlari

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlashtiring.	Darslikdagi matnni o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring
2.	Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishida mehnat resursi omili ta'siri xaqida ma'lumot bering.	
3.	Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari qishloq xo'jaligiga ta'rif bering.	

3- guruh uchun o`quv topshiriqlari

№	O`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan materiallar yuzasidan o`quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatmalar
1.	Janubiy G`arbiy Osiyo davlatlarini hududiy-ma`muriy bo`linishiga ko`ra guruhlashtiring.	Darslikdagi matnni o`qib, quyidagi savol-larga javob toping va topshiriqlarni bajaring
2.	Janubiy G`arbiy Osiyo davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishida iste`molchi omili ta`siri xaqida ma`lumot bering.	
3.	Janubiy G`arbiy Osiyo davlatlari xizmat ko`rsatish tarmoqlariga ta`rif bering.	

b) kichik guruhlar yordamida o`quv materialining yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. O`quvchilar guruhi o`rtasida o`quv bahsi va munozarani tashkil etish;

VI. O`quv bahsi va munozara yakuni. O`qituvchi dars davomida o`quv bahsi va munozara keltirib chiqargan muammolar echimidagi asosiy g`oya va tushunchalarni ta`kidlab, xulosalar yasaydi.

VII. O`quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash. O`quv baxsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o`quvchilar rag`batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

VIII. Uyga vazifa berish.

IX. Darsni umumiy yakunlash. [12]

Yuqorida ko`rsatilgan dars ishlanmasi pedagogik amaliyot davrida “**Janubi-g`arbiy Osiyo davlatlari, tabiati va mehnat resurslari**” mavzusini o`qitishda foydalanildi hamda ijobiy natijalarga erishildi.

XULOSA

“Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Janubi-g’arbiy Osiyo mintaqasi Osiyo qit’asining aholi tomonidan qadimdan o’zlashtirilgan mintaqalaridan biri bo’lib hisoblanadi. Bu yerda qadimiy davlatchilik ko’rinishlari shakllangan.
2. Mintaqa tabiiy resurslar orasida mineral resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Mineral resurslardan neft, gaz, sur’ma bu hududning asosiy boyligi hisoblanadi. Ular yoqilg’i-energetika, kimyo, metallurgiya kabi muhim sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.
3. Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari ishlab chiqarish tarmoqlari ancha sust rivojlangan. Asosan bir yoki ikki tarmoq davlatlar iqtisodiyotining shakllanishi uchun ahamiyatli hisoblanadi.
4. Mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishi bu yerdagi siyosiy vaziyat bilan bevosita bog’liq. Suriya, Afg’oniston, Eron muammolari mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni qiyinlashtirmoqda.
5. 9-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani darslarini o’qitishda “BBB”, “CHarxpalak” usullari katta amaliy ahamiyatga ega. Bitiruv malakaviy ish mavzusi mazmunini o’zida mujassallashtiruvchi “Janubi-g’arbiy Osiyo davlatlari, tabiati va mehnat resurslari” mavzusini o’qitishda esa kichik guruhlariga bo’lib o’qitish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Халқ ишончи олий маъсулият. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
2. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Т.: О'zbekiston, 2010.
3. Гладкий Ю.Н., Николина В.В. География. Учебник для 10-11 классов. – М.: Просвещение, 2008.
4. Голубчик М.М. Политическая география мира: Учебное пособие для вузов. – Смоленск: СГУ, 1998.
5. Ziyomammedov B. Ta'lim texnologiyalari. – Т., 2012.
6. Ишмухамедов Р, Абдукодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т, 2008.
7. Липец Ю.Г., Пуляркин В.А, Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства. – М.: Гуманит. Изд. центр Владос, 1999.
8. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Книга II. Региональная характеристика мира. – М.: Дрофа, 2004. – 490 с.
9. Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. Часть I. – М.: Владос, 2009.
10. Родионова И.А. Экономическая и социальная география мира. – М.: Юрайт, 2012.
11. Социально-экономическая география зарубежного мира. – М.: Дрофа, 2001.
12. Qayumov A, Safarov I, Tillaboeva M. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 9-sinf uchun darslik. – Т.: О'qituvchi, 2010.
13. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. – М.: Экон – Информ, 2008.
14. 9-синф учун атлас. – Т.: Ўқитувчи, 2013.
15. www.prb.org
16. [www. geographyabout.com](http://www.geographyabout.com)

Bitiruv malakaviy ish mavzusiga oid inglizcha – o'zbekcha atamalar lug'ati

Inglizcha	O'zbekcha
Arabian	Arab
Aziya	Osiyo
Saydi Arabiya	Saudiya Arabistoni
Ambient	O'rab turgan
anxiety	Notinchlik
Accession	O'shish
Ancient	Qadimiy
Administrative	Ma'muriy
Agrarian	Agrar
Agriculture	Qishloq xo'jaligi
Anniversary	Yillik
Annual	Yillik
Area	Maydon
Ascendant	Ta'sir ko'rsatmoq
Atmospherical temperature	Havo harorati
Aviculture	Parrandachilik
Along shore	Qirg'oqbo'yi
Aluminium	Alyuminiy
Atomic energy	Atom energiyasi
Grain	Don
Birth-rate	Tug'ilish darajasi
Business	Bandlik
Carboniferous	Toshko'mirli
Carton	Carton
Coal	Ko'mir
Coast	Qirg'oqbo'yi
Coke	Koks
Centre	Markaz
Channel	Kanal
Chart	Karta
Climate	Iqlim
Condition	Sharoit
Cotton	Paxta
Company	Kompaniya
Damp	Namlik
Density	Zichlik
Development	Rivojlanish
Disposal	Joylashuv
Religion	Din

Economic	Iqtisodiy
Economics	Iqtisodiyot
Enterprise	Korxona
Export	Eksport
Fabrication	Ishlab chiqarish
Factor	Omil
Fecund	Unumdor
Fertile	Serxosil
Forest, wood	O'rmon
Tree	Yog'och
Fruetgrowing	Mevachilik
Field crops	Dala ekinlari
Garden-tillage	Bog'dorchilik
Historical	Tarixiy
Natural gas	Tabiiy gaz
Grain	Don
Geographical	Geografik
Plant	Zavod
Population	Aholi
Relief	Relief
Anniversary	Yillik
Resource	Resurs
Oil	Neft'
Ocean	Ocean
Copper	Mis
Connections	Aloqalar
Partnership	Hamkorlik
Power engineering	Energetika
Production	Xo'jalik
Organization	Tashkilot
Tourism	Turizm
World	Dunyo
Country	Mamlakat
Gold	Oltin
Sity	Shahar
Desert	Dasht
Steel	Po'lat
River	Daryo
Mountain	Tog'
Suight	Balandlik
Lend	Qo'rg'oshin
District	Rayon
Border	Hudud

North	Shimol
South	Janub
west	G'arb
east	Sharq
Government	Hokimiyat
Forward	Daromad
Money	Pul
Product	Mahsulot
Industry	Sanoat
Stable	Barqaror
Potassium	Kaliy
Railway	Temir yol
Spirits	Rux
Expenditure	Xarajat
Manufactory	Gazlama
Urbanization	Urbanizatsiya
Price	Narx
Relatively	Nisbiy
Running water	Oqar suv
Field	Poliz
Ore	Ruda
Education	Ta'lim
Mosque	Masjid
Technology	Texnologiya

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiyot fanlar fakuloteti «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» yo'nalishi 402-gurux talabasi Alimbaev Xushnudbek Xurmatovichning «Janubiy-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

ANNOTATSIYA

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari o'rganib chiqilgan. Mintaqa iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari ta'lil qilingan. Bitiruv malakaviy ish mavzusi asosida 9-sinf "Ja'on iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani "Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari" mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi tayyorlangan.

АННОТАЦИЯ

По выпускной квалификационной работе на тему «Особенности развития экономики стран Юго-западной Азии» студента 4-курса Ташкентского Государственного Педагогического Университета им. Низами, факультета «Естественных наук», по направлению «География и основы экономических знаний» Алимбаева Хушнудбека Хурматовича.

Изучена географическая положения природная условия и ресурсы стран Юго-западной Азии. Проанализирована особенности развития отраслей экономики региона. Дана разработка на тему «Страны Юго-западной Азии» по теме выпускного квалификационного работы для 9-классов по предмету «Экономическая и социальная география мира».

ABSTRACT

According to the final qualifying work on " Development Features ekonomikistran Southwest Asia " 4- course student of the Tashkent State Pedagogical University name of Nizami , faculty " Natural Sciences " in " Geography and economic foundations of knowledge" Alimbaev Hushnudbek. The geographical position of natural conditions and resources of Southwest Asia . Analyzed the importance development of industries in the region. Given Development on " South- west Asia " on the topic of final qualifying works for 9 classes on the subject of " Economic and social geography of the world ."

**Низомий номидаги ТДПУ Табиёт фанлар факультети «География
ва иқтисодий билим асослари» йўналиши 402-гуруҳ талабаси Алимбаев
Хушнудбек Хурматовичнинг «Жануби-ғарбий Осиё давлатлари
иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари» мавзусида ёзган битирув
малакавий ишига
ТАҚРИЗ**

Жануби-ғарбий Осиё минтақаси қадимий тарихга эга бўлган, иқтисодиёти ривожланиши табиий шароит ва ресурсларга боғлиқ бўлган, иқтисодий ва сиёсий географик ўрин ҳолатига кўра муҳим аҳамиятга эга минтақалардан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда минтақа давлатларининг жаҳон сиёсати ва иқтисодиётида муҳим ўрин эгаллаб бораётганлиги билан ҳам аҳамиятлидир. Бу ҳолатлар битирув малакавий иш учун танланган мавзунинг долзарблигини кўрсатиб беради.

Битирув малакавий иши таркий жихатдан кириш, уч қисм, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати, битирув малакавий иши бўйича аннотация ҳамда мавзуга оид ўзбекча-инглизча сўзлар луғатидан ташкил топган.

Биринчи бобда Жануби-ғарбий Осиё давлатларининг географик ўрни, табиий шароити ҳамда аҳолисига хос бўлган маълумотлар унинг иқтисодиёти ривожланишидаги омиллар сифатида таҳлил қилиниб, унга хос бўлган асосий жихатлар аниқланган. Иккинчи бобда Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиёти тармоқлари ва иқтисодиёти ривожланишининг минтакавий тафовутларига доир маълумотлар ўрганиб чиқилган. Учинчи бобда эса «Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари» мавзусини ўқитишда фойдаланилиши мумкин бўлган интерфаол усуллар ҳақида маълумот берилган. Ишда берилган 2 та карта-схема ва жадваллар мавзунини ёритишда катта ёрдам берган.

Битирув малакавий ишда мавжуд бўлган мутахассисликка доир тушунчалардан ташкил топган ўзбекча-инглизча луғат ҳам мавжуд. 3.2 бобда эса тўққизинчи синф “Жаҳон иқтисодий-ижтимоий географияси” мактаб дарслигида мавжуд бўлган « Жануби-ғарбий Осиё давлатлари » мавзуси бўйича бир соатлик дарс ишланмаси ишнинг ютуқларидан бири ҳисобланади.

Алимбаев Хушнудбек Хурматовичнинг «Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари» мавзусида ёзган битирув малакавий иши Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан белгиланган ДАК талаблари асосида бажарилган ва уни ижобий баҳоланишга лойиқ деб ҳисоб, уни ҳимояга тавсия этаман.

**Низомий номидаги ТДПУ
“География ва уни ўқитиш
методикаси” кафедраси ўқитувчиси:**

А.Нугманова

**Низомий номидаги ТДПУ Табиёт фанлар факультети «География ва иқтисодий билим асослари» йўналиши 402-гуруҳ талабаси Алимбаев
Хушнудбек Хурматовичнинг «Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари» мавзусида ёзган битирув
малакавий ишига ёзилган илмий раҳбар
ХУЛОСАСИ**

Жаҳон сиёсий картасида Жануби-ғарбий Осиё минтақаси алоҳида ўринга эга бўлган минтақа ҳисобланади. Бунда унинг нефт захираларига бойлиги, муҳим геостратегик минтақа эканлиги, асосий транспорт йўллари устида жойлашганлиги ва энг асосийси Европа, Осиё ва Африка минтақалари кесишган ҳудудда жойлашганлиги сабаб бўлади. Натижада минтақада ўзига хос иқтисодиёт тармоқлари ривожланади. Бу ҳолатлар мазкур давлат иқтисодиёти ҳақидаги маълумотларни батафсил ўрганишни тақаззо этади. Мазкур жиҳатлар танланган мавзу долзарблигини кўрсатиб беради.

Алимбаев Хушнудбек Хурматовичнинг «Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари» мавзусида ёзган битирув малакавий иши кириш, 3 боб, 6 қисм, хулоса, битирув малакавий иши бўйича ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги аннотация, фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва мавзуга оид атамаларнинг инглизча таржимасидан ташкил топган.

Биринчи бобда Жануби-ғарбий Осиё давлатларининг географик ўрни, табиий шароити ва ресурслари, аҳолиси ҳақидаги маълумотлар таҳлил қилинган. Иккинчи бобда Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиёт тармоқлари ва уларнинг ҳудудий ривожланиш ҳолати ҳақидаги маълумотлар берилган. Учинчи бобда эса “Жаҳон иқтисодий ва ижтимоий географияси” фанини ўқитишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланишмасалалари ўрганилиб, “Жануби-ғарбий Осиё давлатлари” мавзусини ўқитиш бўйича бир соатлик дарс ишланмаси ҳам кўрсатилган.

Алимбаев Хушнудбек Хурматовичнинг «Жануби-ғарбий Осиё давлатлари иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари» мавзусида ёзган битирув малакавий ишини Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан белгиланган ДАК талаблари асосида тайёрланган деб ҳисоблайман ва уни ҳимояга тавсия этаман.

**“География ва уни ўқитиш
методикаси” кафедраси к.ўқит:**

И.Исломов

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: XXR iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish.

Ob’ekti: Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari.

Predmeti: XXR iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni, ularning tarmoqlarga ta’sir holatini aniqlash hamda iqtisodiyotining hududiy rivojlanish xususiyatlarini o’rganib chiqish.

Vazifalari:

- XXRning geografik o’rni, tabiiy sharoiti va resurslarini o’rganish;
 - Tarixiy rivojlanish bosqichlari va ularga xos jarayonlarning iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish;
 - XXR xo’jaligining asosiy tarmoqlariga tavsif berish;
 - XXR iqtisodiyotining hududiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;
 - O’zbekiston-Xitoy munosabatlarining rivojlanishining asosiy jihatlarini o’rganish;
- «XXR iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: BMI ma’lumotlaridan 9-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining Xitoy Xalq Respublikasi ga bag’ishlangan mavzularini o’tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: Ishning umumiy hajmi 53 betdan iborat. Unda 7 ta jadval va 2 ta karta-sxema mavjud. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati 16 manbaadan tashkil topgan. Bundan tashqari, ish so’nggida mavzuga oid – so’zdan iborat inglizcha-o’zbekcha glossariy, qisqacha o’zbek, rus va ingliz tillaridagi annotatsiya mavjud.